


# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




## 2021- yil yanvar- noyabr oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar- noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va hilma-hilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar- noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3875,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **910,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,3** % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar- noyabr oylarida)

3875,0 mlrd.  
so'm

122,3 %

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

910,4 mlrd.  
so'mga

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3875,0</b>	<b>122,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	224,7	127,2
Moliyaviy xizmatlar	1 178,4	129,7
Transport xizmatlari	584,6	110,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	555,3	109,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	87,6	114,9
Savdo xizmatlari	1 028,3	110,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	103,0	129,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	190,2	171,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	73,8	137,6
Ijara xizmatlari	78,3	121,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	98,1	122,9
Shaxsiy xizmatlar	81,7	122,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,3	137,9
Boshqa xizmatlar	110,0	146,5

2021- yil yanvar- noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 30,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (26,5 %), transport xizmatlari (15,1 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,8 %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,9 %** ga yetdi

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **30,0 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,8 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yilning yanvar - noyabr oylarida yuqori o'sish savdo xizmatlarida (26,5 %), transport xizmatlarida (15,1 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2021- yil yanvar- noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **149,7 %**.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda pasayish kuzatilgan – **83,9 %**.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da  
(2021- yil yanvar-noyabr)



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Sayxunobod tuman (19,6 %), Shirin (12,1 %) shuningdek, Yangiyer shahrida (12,0 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Boyovut (102,1 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (29,1 %) va Yangiyer (16,2 %) shaharlariga hamda Sirdaryo (17,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,4 %).



2021- yil yanvar noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar- noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **26,5 %** ni tashkil etib, bu esa **1028,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **744,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **28,0 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

839,1

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

1028,3

111,0

O'sish sur'ati, % da

110,4

2020- y. yanvar-noyabr




2021- y. yanvar-noyabr

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **66,3 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **66,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Yangiyer shahrida (79,3 %) va Sardoba (82,5 %), Boyovut (80,6%), Mirzaobod (78,9 %) tumanlarida kuzatilmoqda.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi Yangiyer shahrida maksimal darajaga yetgan – **80,6 %**.

Shirin shahrida bu ko'rsatkich nisbatan ahamiyatsiz. Bu yerda u atiga **28,4 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu shaharda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **70,1 %**.

Sardoba – **11,6 %** va Oqoltin – **6,4 %** tumanlari esa nisbatan kichik ulushga ega.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Shirin shahrida ulgurji savdo ulushi **70,1 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**10,4 %**), Xovos (**10,0 %**) Sardoba (**7,6 %**), Guliston (**8,6 %**) tumanlarida qayd etildi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **10,4 %**.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1178,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **888,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **30,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **30,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **289,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **29,7** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **147,5** % ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-noyabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,1 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,1 %**.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **224,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **127,2 %** ni tashkil etgan.


#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **174,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,9 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **113,2 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **190,2 mlrd.** so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,9 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr nisbatan o'sish sur'ati **84,9 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (11,0 mlrd. so'm), Boyovut (5,2 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (149,6 mlrd. so'm) va Yangiyer (8,9 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**  
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:**  
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 81,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

66,9 mlrd.  
so'm

87,6 mlrd.  
so'm

Xizmatlar hajmi

2020- y.  
yanvar-noyabr

2021- y.  
yanvar-noyabr

89,6 %

114,9 %


O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **20,7** mlrd. so'mga ortgan.


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020- y. yanvar-noyabr



2021- y. yanvar-noyabr



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,6** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,3** % ni tashkil etgan.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

2021- y.  
yanvar-  
noyabr

73,8  
mlrd. so'm

1,9 %

137,6 %



Xizmatlar  
hajmi

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi


O'sish  
sur'ati

2020- y.  
yanvar-noyabr

50,2  
mlrd. so'm

1,7 %

99,7 %



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3 875,0</b>	<b>122,3</b>	<b>107,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1762,9	128,0	119,4
Shirin	94,4	117,9	99,8
Yangiyer	298,0	116,9	99,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	218,7	118,5	88,8
Guliston	157,1	118,1	99,2
Mirzaobod	185,1	120,4	99,6
Oqoltin	113,7	119,2	96,3
Sardoba	143,8	115,9	91,4
Sayxunobod	187,1	115,0	71,7
Sirdaryo	530,3	118,1	98,2
Xovos	183,9	120,0	97,5


2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **45,5 %** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **43,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **2,4 %** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **2,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning  
o'sishi



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4467,4 ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr nisbatan o'sish sur'ati **120,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3480,9 ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % da qayd etilgan.



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

10509  
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

894  
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

109,3 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi

63,3 %



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,0** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **9,2** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,5** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9** % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.

Savdo – 50,0

Boshqa turdagi xizmatlar – 31,5

Yashash va ovqatlanish – 9,2

Tashish va saqlash – 5,5

Axborot va aloqa – 1,9

Sog'liqni saqlash – 1,9


2021- yil yanvar- noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar- noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **54,6** % ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **79,6%** ga to'g'ri keldi.

